

## HEMIS PLATFORMASI VA KREDIT-MODUL HAQIDA

**Kazaxbaeva Mexriban Jamalatdin qizi**

*Ajiniyoz nomidagi NDPI Pedagogika fakulteti*

*maktab menejmenti 1-kurs talabasi*

**Ashimova Zauresh Jamag'ali qizi**

*Qaraqalpaqstan awil xojaligi ham agrotexnologiyalar*

*instituti Marketing 1-kurs talabasi*

**Annotatsiya:** Hemis va kredit-modulning mazmun va mohiyati haqida

**Kalit so'zlar:** Hemis, OTM, kredit, modul, dastur, ECTS, transkript, Akademik qarzdor

O'zbekiston rivoji yo'lida talabalar yetuk kadrlar bolib yetishida bilim darajasining ahamiyati katta rolni oynaydi.Yangidan yangi kirib kelayotgan dasturlarning eng ahamiyatlisi bu Hemis platformasi hisoblanadi.

Baqolash tizimi malumotini bazirlik axborot tizimi bilan integraciya qilish natijasida hosil boladi. Yani baholash tizimini vazirlik axborot tizimida shakillantiradi , songra OTM axborot tizimida korinadi . Baholash tizimini korish Oquv jarayoni / baholash tizimini menyusi orqali amalga oshiradi. Baholash tizimi royxati hozirgi kunda oliy talim tizimida 3 xil baholash tizimi mavjid bolib, ular Reyting ,5 baholik va Kredit baholash tizimiga bolinadi .Bugungi kunda aksaryat hollarda kredit baholash tizimiga otildi. Agar boshqa baholash tizimlari umuman ishlatilmasa baholash tizimini nofolga otkazish talab etiladi. Boholash tizimini tahrirlash ushun baholash turini tanlanadi va natijada baholash tizimini malumotlari tahrirlash maydoniga yuklanadi.Baholash tizimini tahrirlash oynasida faqat baholashning minimum qiymatini ozgarishiga ruxsat bor. Agar minimum qiymatta xatolik bolsa tahrirlash tavsiya etiladi va saqlash tugmasi tanlash orqali malumotlar saqlanadi Baholash tizimini oshirishga ruxsat etilmagam . Tizimning ornatilgan vaqtida baholash tizimi ham avtomatik tarzda shakillanadi . Agar biror bir xatolik bolmasa baholash tizimini tahrirlash mumkin emas.

1) ECTS krediti,

2) Erishilgan bilim- (Learning outcomes) shaxsning urganilayotgan fa'n bo'yicha erishgan bilmlari, uni amalda qullay olishi, fa'nning mohiyatini tushina olishi, mushoxada yurita olish darajasi v.x.

3) Ish hajmi va turi - (Workload) ma'ruza, amaliyat, mustaqil ish, laboratoriya.

•ECTS tizimida bir oquv yilida jami 60 kredit yig'ish mumkin.Shundan 3 yillik bakalavr darajasini olishda 180 kredit, 2 yillik magistratura darajasini olishda 120 kredit olish ko'zda tutiladi.Kredit modul tizimi ma'ruza, nazariy, amaliy, seminar,

laboratoriya mashg'ulotlari, o'quv amaliyoti, klinik o'quv amaliyotlar, kurs loyihasi (ishi), shuningdek ta'lif oluvchilarning mustaqil mashg'ulotlari bo'yicha haftalik soat yuklamasi va ta'lif oluvchilarning faoliyatini baholash mezonlarini aks ettiradi. Ta'lif oluvchilar tomonidan barcha majburiy faoliyat turlari bajarilgandan va ular baholangandan so'ng kreditlarni to'plash mumkin.

Kredit-modul o'qitish tizimi o'quv jarayonining quyidagi shakllaridan tashkil topadi:

- auditoriya mashg'ulotlari – ma'ruza, nazariy, amaliy, seminar, laboratoriya mashg'ulotlari, o'quv (klinik) amaliyoti;

- auditoriyadan tashqari mashg'ulotlar – ilmiy kutubxonada ishlash, mustaqil ishlar, individual maslahatlar, klinik vazifalar, ishlab chiqarish (malaka) amaliyoti, kurs ishi, bitiruv malakaviy ishi, ta'lif oluvchilarning ilmiy anjumanlarda qatnashishi, magistratura mutaxassisliklarida ilmiy faoliyat turlari va boshqalar.

kredit — ta'lif olish natijalariga ko'ra talaba tomonidan muayyan fan bo'yicha o'zlashtirilgan o'quv yuklamasining o'chov birligi;

kreditlarni ko'chirish — talabalarning akademik mobilligini ta'minlash maqsadida bir oliy ta'lif tashkiloti ta'lif dasturi bo'yicha olingan kreditlarni boshqa oliy ta'lif tashkilotiga ko'chirish va tan olish;

kredit to'plash — ta'lif elementlarini o'zlashtirish va boshqa yutuqlarga erishish natijasida taqdim etiladigan kredit birliklarini to'plash;

mobililik dasturi — ikki yoki undan ortiq oliy ta'lif tashkiloti o'rtaida o'zaro ta'lif to'g'risidagi kelishuv asosida tashkil etilgan akademik mobililik dasturi;

oliy ta'lif tashkiloti — belgilangan miqdordagi kreditlarni tan olishni hisobga olgan holda, ta'lif va malaka to'g'risidagi hujjat beruvchi tashkilot;

talabaning shaxsiy ta'lif trayektoriyasi — talaba tomonidan tanlangan hamda unga ketma-ketlikda bilimlar to'plash va xohlagan kompetensiyalar yig'indisiga ega bo'lish imkoniyatini beradigan yo'nalish (marshrut). Ta'lif trayektoriyasi institutsional hujjatlar va yo'riqnomalar yordamida tuzilishi hamda turli ta'lif trayektoriyalari natijada bir xil malaka olishga olib kelishi mumkin;

ta'lif dasturi — bakalavriat ta'lif yo'nalishi yoki magistratura mutaxassisligi bo'yicha o'quv jarayonini amalga oshirishga mo'ljallangan ta'lifning asosiy xususiyatlari (hajmi, mazmuni, rejalashtirilgan natijalar), tashkiliy-pedagogik shart-sharoitlar, fan dasturlariga qo'yilgan umumiyl talablar, shuningdek, ta'lifni tashkil etish va amalga oshirish uchun zarur bo'lgan axborot-resurs va o'quv-metodik ko'rsatmalar majmui;

ta'lif dasturi katalogi — oliy ta'lif tashkiloti tavsifi, kredit-modul tizimiga kirish, mavjud bakalavriat ta'lif yo'nalishlari va magistratura mutaxassisliklari, xizmatlar va resurslar, o'quv fanlari dasturlari, aniq ta'lif dasturlari elementlari tavsifi to'g'risidagi axborot;

ta'lim jarayonini boshqarish axborot tizimi — talabalarni ro'yxatga olish, o'quv materiallarni tarqatish, talabalar va o'qituvchilar o'rtasida o'zaro hamkorlikni ta'minlash, topshiriqlarni berish, nazoratlar o'tkazish, baholash va uning natijalarini qayd etish kabi imkoniyatlarga ega bo'lgan elektron tizim (maxsus dasturiy vosita);

ta'limning kredit-modul tizimi — ta'lim oluvchiga yo'naltirilgan, ta'lim olish, ta'lim berish va ta'lim oluvchilar bilimini baholash jarayonlarining shaffofligi tamoyili asosida kreditlarni yig'ish va o'tkazishdan iborat tizim;

ta'lim moduli (modul) — bu o'zida bilimga oid hamda kasbiy jihatlarni qamrab oladigan, talabada bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirishga qaratilgan ta'lim dasturining tarkibiy elementi sifatida nazorat qilishning tegishli turi bilan yakunlanadigan alohida o'quv fani (uning qismi yoki o'zaro bir sohaga doir fanlar majmui);

ta'lim natijalari — talaba tomonidan o'zlashtirilgan va baho bilan tasdiqlangan malaka darajasini aks ettiradigan, ta'lim jarayonini tugatgach talaba o'zlashtirgan ko'nikmalar va ularni amalda bajarish qobiliyatining tavsifi;

ta'lim elementlari — ta'lim dasturining bir qismi bo'lib, ta'lim olish natijalariga erishish va ta'lim dasturida ko'rsatilgan bilimlarni o'zlashtirishga ko'maklashuvchi o'qitish turi;

transkript — ta'lim olishning tegishli davrida o'zlashtirilgan kreditlar va baholarning harf va raqamlardagi ifodasi ko'rsatib o'tilgan fanlar ro'yxatini o'z ichiga olgan belgilangan shakldagi hujjat;

o'qish yuklamasi — talaba tomonidan o'quv faoliyatining barcha turlari — ma'ruza, amaliy mashg'ulot, seminar, laboratoriya ishi, kurs loyihasi (ishi), amaliyot va mustaqil ishni amalga oshirish asosida kutilgan o'quv natijalariga erishish uchun zarur bo'lgan soatlar hajmi;

ro'yxatga olish xizmati — ta'lim jarayonini boshqarish axborot tizimlari va dasturiy mahsulotlardan foydalaniib professor-o'qituvchilar, xodimlar va talabalar bo'yicha ta'lim jarayoniga oid ma'lumotlar bazasini shakllantirishni, shuningdek, talabalarning barcha o'quv natijalarini ro'yxatga olish, bilimini nazorat qilish hamda ularning akademik reytingini hisoblashning barcha turlarini tashkil etishni nazarda tutuvchi xizmatlar;

Bir fanga ajratilgan auditoriya soatining 25 foizini va undan ortiq soatni sababsiz qoldirgan talaba ushbu fandan chetlashtirilib, yakuniy nazoratga kiritilmaydi hamda mazkur fan bo'yicha tegishli kreditlarni o'zlashtirmagan hisoblanadi. Yakuniy nazorat turiga kiritilmagan yoki kirmagan, shuningdek, ushbu nazorat turi bo'yicha qoniqarsiz baho olgan talaba akademik qarzdor hisoblanadi.

Akademik qarzdor talabalar ta'til vaqtida yoki keyingi semestrlar mobaynida tegishli fanlardan o'zlashtirilmagan kreditlar miqdoriga mos ravishda bazaviy to'lov-

kontrakt miqdoridan kelib chiqqan holda to‘lovnii amalgaga oshirgandan so‘ng o‘zlashtirilmagan fanlarni o‘z hisobidan qayta o‘qish huquqiga ega bo‘ladi.

Ta’lim oluvchini kursdan kursga o‘tkazish uning GPA qiymatini hisobga olgan holda amalgaga oshiriladi. OTM talabalarini kursdan kursga o‘tkazishda GPA ko‘rsatkichini mustaqil belgilash huquqiga ega. Bunda GPA ko‘rsatkichi 2,4 — 3,0 oralig‘ida bo‘lishi talab etiladi. GPA o‘tish ballini to‘play olmagan talaba qayta o‘qish uchun tegishli kursda qoldiriladi. Semestr va o‘quv yili yakuni natijalari bo‘yicha akademik qarzdorligi bor ta’lim oluvchilar o‘qishdan chetlashtirilmaydi. Kursdan kursga qolgan talabalar faqat qarzdor bo‘lgan fanlarni o‘zlashtirib ularga mos ravishda shartnoma mablag‘larini to‘laydi. Shartnoma asosida bir kursda qayta o‘qish soni chegaralanmaydi. Jami ta’lim olish muddati bakalavriat uchun 1 kursga o‘qishga qabul qilinganidan so‘ng 8 yilgacha, magistratura uchun 1 kursga o‘qishga qabul qilinganidan so‘ng 4 yilgacha deb belgilanadi.

Agar talaba oz vaqtida vazifalarni bajarmasa akademik qarzdor boladi, bunnan maxsad talabani yiqitish yemas, talabada mustakkam bilimdi ifoda yetish. Bilimli insonda, bilimsiz insonga nisbatan ham do’st, ham shukurlik qila oladi, ham insoniy fazilatlar ozida rivojlanadi. Kredit-modul tizimida keyingi bosqishni oylab ish qilasan, yani yakuniyga otish uchun, malum mugdorda kredit toplash zarur, shuning uchun ham talabanining rejali aniq korsatilgan.

#### **Poydalanolgan adabiyotlar:**

1. <https://hemis.uz/yoriqnomma/baxolash-tizimi.php>
2. "O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI ADLIYA VAZIRLIGI TIZIMIDAGI TA’LIM MUASSASALARIDA KREDIT-MODUL TIZIMINI JORIY ETISH CHORA-TADBIRLARI" TO‘G‘RISIDA O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, 10.06.2021 yildagi 359-son